



## TEMPERAMENT: SHAXSIYATIMIZNI SHAKLLANTIRUVCHI ICHKI KUCH

**Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna**

Andijon davlat pedagogika insitituti  
“Pedagogika psixalogiya” kafedrası o’qituvchisi

**Alisherova Zulfiya Tolibjanovna**

Andijon davlat pedagogika instituti  
umumiy psixalogiya fani o’qituvchisi

**Muhammadiyeva Mushtariy Islomjon qizi**

**Oripxo’jayeva Munisaxon Shodixo’ja qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Amaliy matematika yo’nalishi talabalari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada temperamentning turli turlarini tahlil qilish, ularning inson hayotidagi rolini, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda qanday aks etishini korib chiqamiz. Shuningdek, temperamentning psixologik va ijtimoiy rivojlanishga qanday ta’sir qilishini o’rganish orqali, uning shaxsiyat shakllanishidagi ahamiyatini yoritamiz. Temperamentni tushunish, insonning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa uning o’zini rivojlantirish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va hayotdagi muvoffaqiyatlarga erishishda yordam beradi.

**Kalit so’zlar.** Temperamentum, aralashma, emotsional va ruxiy xolatlarini, xristianlar, xarakteristika, tipologik, Senzitivlik, Reaktivlik, Reaktivlik va faollikning o’zaro munosabati.



**Kirish.** Temperament lotincha “ temperamentum” degan so’zdan olingan bo’lib, buning ma’nosi “ aralashma “ degan tushunchani anglatadi. Temperament bu insonning tug’ilishidan boshlab shakllana boshlaydigan, uning emotsional va ruxiy xolatlarini, xulq-atvorini va jismoniy faoliyatini ifodalagan tabiiy xususiyatlar jixati. U insonnig umumiy mental xolati va xayotga muosabatini tavsiflaydi.

Temperament to’g’risidagi dastlabki ta’limotni yuon olimi Gippokrat yaratgan bo’lib, uning tipologiyasi to xozirgi davrgacha qollanib kelinmoqda. Temperamentlar o’rta asrlardan mashhur bo’lgan u xristian bo’lmagan shaxslar orasida ham mashhur bo’lgan . Bu odamlarning o’zlarini va boshqalarni yaxshi tushinishga bo’lgan talabdan kelib chiqqan.

Temperamentlar tushunish va foydalanishga qulaydir . Ular hayotiy muammolarni oson hal etish va inson xulq atvori yaxshiroq tushinish imkonini berdi. Ko’plab xristianlar temperamerntlarga ularning muqaddas kitobi bo’lmish Bibliyaga ishongandek ishonganlar. Tortta temperament o’zining ijobiy va salbiy xususiyatlariga ega . Ijobiy jihatlar ustunlik deb omlansa salbiy jihatlar noziklik de ataladi. Insonlarga to’rtta temperament haqida gapiradigan o’lsak tezda o’zlariing temperametining qaysibiriga masubligini bilishga harakat qiladilar

Temperamentga ta’rif beradigan bo’lsak , u shunday ko’rinishda bo’ladi: psixikaing individual jihatdan o’ziga xos , tabiiy shartlashgan dinamik ko’rinishlari majmui kishining temperamenti deyiladi. To’rtta temperament nazariyasininng qadimiy tuzilmalardan biri bo’lib u inson tabiatini tushunishga va inson turmish hayotini yaxshilashga yunaltirilgan.

Bu nazariya innsonlarni bir necha shaxs xarakteristikalariga bo’ladi va u shaxs temperamentlarida namoyon bo’ladi. Ba’zi insonlar temperamentni tug’ma xususiyat deb atashadi, lekin bu har doim ham to’g’ri emas.



Psixalogiya fanida Temperament xususiyatlari deganda , alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi.

Gippokratning to'rt xil modda aralashmasi , ya'ni "temperament" tushunchasi va uning tipologiyasi ramziy manoda hozirgi zamon psixalogiyasida ham qo'llanib kelinmoqda Organizmda suyuqliklarning aralashuvi sangvinik temperamenti deyiladi, limfa ko'p bop bolganda flegmatik temperament, sariq o'tning ko'payganligini xolerik temperamenti , qora o't ko'p bo'lganda melanxolik temperament deb ataladi.

Biz bola taraqqiyotini o'rganar ekanmiz uning temperament xususiyatlarini yaxshi tushunib olishimiz lozim. Temperament nazariyalarida insonning emotsional tizimidagi farqlar bolalarning o'z o'zini boshqarish tizimi insonning temperamentiga bog'liq ekanligini aytib o'tilgan. Olimlar fikriga ko'ra temperament xususiyati insonning rivojlanish boshlangan davrdan shakllanadi va keying yillarda kata o'zgarishlarga uchramaydi . Temperamentning ta'siri turli davrlarga shaxsga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan bolalar sinf jamoasida o'z temperament xususiyatlarini ancha yaxshiroq namoyon qiladilar . O'qituvchilar bolalarning temperament xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Chunki bu bolalar ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyida ko'rishimiz mumkin.

Temperament tiplarining psixologik tavsifnomasi :

- Senzitivlik
- Reaktivlik
- Faollik
- Reaktivlik va faollikning o'zaro munosabati
- Reaksiya tempi
- Harakatlarning silliqililigi



- Ekstraverlik va intraventlik

### TEMPERAMENT TURLARI

Kishi temperamenti haqidagi tasavvur, odatda, shu shaxsning ayrim psixologik xususiyatlari asosida vujudga keladi.

Xoleriklar, sangviniklar, flegmatiklar va melanxoliklar. Har bir temperament o'z tushunchalariga ega. Insonlar bitta emas bir necha temperament tipiga mansub bo'lishlari mumkin.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar – bolmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo –ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi . Uning aft – basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Flegmatik - senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, uni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Hatto qattiq kulgaida ham vazminligicha qolaveradi. Katta kongilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi . Imo- ishoralari, yuz harakatlari ifodasiz, qayrati va ishchanligi bilan boshqalardan ajralib turadi . Yuksak faolligi reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi, harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Rigid, diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi..

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, senzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va ko'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida kata barqarorlik , zo'r qat'iylik bor. Diqqatni ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Melanxolik - yuksak senzitivlik xususiyatga ega . sezgirliigi yuksak. Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yeg'laydi.



Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust, o'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qoltig'iga urib g'ya qiladi. G'ayratsiz, qat'iy emas. Psixik tempi sust. Rigid, Introvertlik xususiyatga ega. Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap kotare olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradogan kishilar melanxoliklar deb ataladi.

**Xulosa** qilib aytganda, temperament insonning psixologik va hissiy hususiyatlarini tushunish uchun muhim omil bo'lib, uni bilish, o'zini anglash va boshqalar bilan samarali muloqotda bo'lishda yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya., T 2010
2. Nishanova Z, Do'stmuxamedova H., Tulaganova S., Pedagogic psixologiya 2011
3. Haydarov F. I, Xalilova N. Umumiy psixologiya., T. 2009